

Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'gli

Osiyo xalqaro universiteti

tarix va filologiya kafedrası o'qituvchisi

sferuz1011@gmail.com

BUXORO AMIRLARI SAROYLARINING UMUMIY TASNIFI VA ULARNING ME'MORIY AN'ANALARI

Annatsiya. Sharqning buyuk davlatlaridan biri bo'lgan Buxoro amirligi Man'gitlar davrida ham yetuk davlatlardan biri sifatida o'zining ulug'vorligini saqlab qolaolgan. XX asr davomida davlatni idora etgan amirlar saroylar qurilishi va ularning rekonstruksiyasiga davlat darajasida e'tibor berganlar. Amirlik saroylari voha tabiati, joylashuvi, qurilish ananalari va uslublarining o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. Ushbu maqolada ayni shu davr saroylarining umumiy tasnifi, qurilish uslubi, saroylarning vazifalari borasida ma'lumotlar jamlanib ilmiy tahlil etildi.

Kalit so'zlar: Saroy, Man'gitlar sulolasi, Memorchilik, Buxoro amirligi, Karmana saroyi, Sitorayi Moxi Xossa, Amir, Hukmdor, Obida, Inshoot.

ОБЩАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ДВОРЦОВ БУХАРСКИХ ЭМИРОВ И ИХ АРХИТЕКТУРНЫЕ ТРАДИЦИИ

Аннотация. Бухарский эмират, одно из великих государств Востока, сумел сохранить свою славу как одно из развитых государств даже в период правления Мангидов. Эмиры, правившие государством на протяжении всего XX века, уделяли внимание строительству и реконструкции дворцов на государственном уровне. Дворцы эмирата отличались своим оазисным характером, расположением, а также уникальностью строительных традиций и стилей. В данной статье обобщается и научно анализируется информация об общей классификации дворцов этого периода, стиле их строительства и функциях дворцов.

Ключевые слова: Дворец, Династия Мангидов, Запоминание, Бухарский эмират, Дворец Кармана, Ситораи Мох Хосса, Эмир, Правитель, Сооружение, Здание

GENERAL CLASSIFICATION OF THE PALACES OF THE EMIRATE OF BUKHARA AND THEIR ARCHITECTURAL TRADITIONS

Annotation. The Bukhara Emirate, one of the great states of the East, managed to maintain its glory as one of the developed states even during the Mangid period. The emirs who ruled the state throughout the 20th century paid attention to the construction of palaces and their reconstruction at the state level. The palaces of the emirate were distinguished by their oasis nature, location, and the uniqueness of their construction traditions and styles. This article summarizes and scientifically analyzes information on the general classification of palaces of this period, their construction style, and the functions of the palaces.

Keywords: Palace, Mangid Dynasty, Memorization, Bukhara Emirate, Karmana Palace, Sitoraei Moxi Khossa, Emir, Ruler, Ancient monument, Structure

Kirish. Sharqning eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadigan ko'hna va qadimiy Buxoro shahri azal-azaldan o'zining boy madaniy tarixiga ega. Buxoro shahri asrlar davomida bir necha bor qaytadan bunyod etilgan bo'lishiga qaramay, shahar o'zining tarixiy ildizlaridan hech qachon uzilib ketmagan. Uning bag'rida uzoq o'tmishdan to hozirgi kungacha qurilgan ko'plab me'morchilik yodgorliklari saqlanib qolgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XX asr boshlarida ularning soni 550 ga yaqin bo'lgan. Salkam bir asrga yaqin vaqt ichida sho'ro

dahriylarining tariximizga nisbatan buzg'unchilik munosabati o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bugungi kunga kelib, shaharda 300 ga yaqin yodgorliklar saqlanib qolgan. Xususan, mang'itlar davrida bunyod etilgan tarixiy obidalar hozirgi kunga qadar shaharning navqiron o'tmishidan so'zlab kelmoqda. O'zbekiston tarixida Mang'itlar sulolasi hukmronligi (1753–1920) alohida o'rin tutib, bu davrda siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarda muhim o'zgarishlar sodir bo'lgan. Ayniqsa, saroylar nafaqat davlat boshqaruvi markazi, balki ijtimoiy-madaniy hayotning muhim bo'g'ini sifatida shakllangan. Mang'itlar sulolasi hukmdorlari tomonidan barpo etilgan saroylar o'zining ulug'vor me'morchiligi, shuningdek, ilm-fan, adabiyot va san'atning rivojlanishiga bo'lgan ta'siri bilan ajralib turadi. Ushbu davr saroylari faqat hukmdor yashaydigan joy bo'lib qolmay, balki davlat arboblari, shoirlar, olimlar va san'atkorlar yig'iladigan madaniy markaz vazifasini ham bajargan. Buxoro amirligi saroylari, jumladan, Ark qal'asi, Sitorai Moxi-xossa va boshqa me'moriy yodgorliklar, hukmronlik timsoli bo'lish bilan bir qatorda, milliy madaniyat taraqqiyotiga ham xizmat qilgan. Shu boisdan, mazkur bo'limda Mang'itlar davri saroylarining shakllanish jarayoni, jamiyat hayotidagi o'rni tahlil etilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot usullari. Ilmiy bilishning tahlil va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik, usullaridan foydalanilgan.

Asosiy qism. Saroylar – hukmdorlar yashaydigan va davlat ishlarini yuritadigan asosiy inshoot bo'lib, tarixiy jihatdan har bir davlatning siyosiy, ijtimoiy-madaniy va me'moriy qiyofasini aks ettirgan. Mang'itlar davridagi saroylar o'z zamonasining eng yirik va hashamatli inshootlari bo'lgan. Manbalarda bu saroylarni siyosiy qudrat va diniy hokimiyatning ramzi sifatida tasvirlaydilar. Buxoro amirlarining saroylari faqat siyosiy hokimiyatni namoyish etish vositasi bo'libgina qolmasdan, balki ilm-fan, san'at va diniy hayotning markazi sifatida ham muhim rol o'ynagan. Tarixchilar B.Bartold, N.Xanikov, Ahmad Donish o'z asarlarida bu saroylarni madaniy boylik, siyosiy hokimiyatning ramzi, madaniy va ilmiy markazlar sifatida, shuningdek, diniy va ijtimoiy muhim hodisalar ro'y beradigan joylar sifatida tasvirlaydi. Buxoro amirligi saroylari ham o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, ularni o'rganishda asosan uch turga ajratib, tasniflab o'rganishimiz mumkin. Ularning turlari, me'moriy xususiyatlari, funksional vazifalariga ko'ra quyidagicha guruhga ajratib olamiz:

1. Rasmiy saroylar-davlat boshqaruvi, elchi va mehmonlarni kutib olish hamda tantanali marosimlar uchun ishlatilgan.
2. Shaxsiy saroylar -faqat hukmdor va uning oila a'zolari uchun mo'ljallangan.
3. Yozgi saroylar-asosan dam olish uchun mo'ljallangan bog'-saroylar bo'lib, masalan, Sitorayi Moxi-xossa, Karmana saroylari shu maqsadda barpo etilgan edi.

Shuningdek, saroylarning me'moriy xususiyatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning hududi va tarkibi, qurilish materiallari, bezak va naqshlarida bir biridan ajralib turishining guvohi bo'lamiz. Har bir saroy o'z davrining me'moriy uslubi, hukmdorning shaxsiy didi va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy talablar asosida barpo qilingan.

Hudud va tarkibi jihatidan Buxoro amirligidagi saroylar odatda bir necha bo'limlardan iborat bo'lib, rasmiy qabulxonalar, shaxsiy yashash joylari (haram), bog' va hovlilar, shuningdek, xizmatkorlar va harbiy qo'riqchilar uchun ajratilgan hududlar bilan ajralib turgan. Ayrim saroylarda maxsus kutubxonalar, madaniy-tantanali zallar, va xazina saqlanadigan joylar ham bo'lgan. Qurilish materiallari esa saroyning ijtimoiy maqomi va zamonasiga bog'liq holda farq qilgan. An'anaviy saroylar asosan pishiq g'isht, marmar, koshin, ganch va qimmatbaho yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan. Yevropa ta'siri ostida qurilgan keyingi davr saroylarida esa shishali derazalar, temir konstruksiyalar, va hatto Yevropadan keltirilgan bezaklar ham qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Bezak va naqshlarga kelsak, saroylarning har biri o'ziga xos uslubda bezatilgan. Masalan, Buxoro Ark qo'rg'oni islomiy naqshlar, Qur'on oyatlari bilan bezatilgan bo'lsa, Sitorai Moxi-xossa saroyida Yevropa va Sharq arxitekturasini uyg'unlashgan. Devorlarga koshinkorlik, o'yma yog'och eshiklar, rang-barang oynavand derazalar va murakkab ganch naqshlar ishlatilgan. Bu naqshlarning har biri o'ziga xos ramziy ma'noga ega bo'lib, Ko'p minoralari, gumbazlari va ustunlari bo'lgan saroy eklektik bo'lib, barokko va imperiya bilan uyg'unlashgan neo-mavriy uslubda qurilgan. Dizaynda tipik evropacha uslubdan tashqari arabcha

naqshlar ham qo'llangan. Bu esa Buxoro amirligida me'morchiligning yuksakligini va kompleksligini ko'rsatadi.

Ma'muriy va madaniy markaz sifatida faoliyat yuritgan saroylarning funksional vazifasi ham ko'p qirrali bo'lib, xususan, har bir bo'lim muayyan maqsadga yo'naltirilgan va o'ziga xos tartib hamda estetik ifoda bilan bezatilgan. Xususan, saroyning devonxona qismi-davlat boshqaruvining yuragi bo'lib, unda amir va uning devon a'zolari muhim siyosiy qarorlarni qabul qilgan, elchilarni kutib olgan va davlatni idora qilish jarayonlari amalga oshirilgan. Hukmdor qarorgohi hisoblangan saroyda amir harami ham joylashgan bo'lib, haram saroyning eng sirli va yopiq qismi hisoblangan. Bu hudud hukmdor va uning oilasi istiqomat qiladigan muqaddas makon sifatida ko'rilgan. Bu joy nafis ganch o'ymakorligi, guldasta naqshlar va rang-barang koshinlar bilan bezatilgan bo'lib, ichki osoyishtalik va farovonlik muhitini yaratgan.

Saroy – qabul zallari va mehmonxonalari elchilar va yuqori martabali mehmonlarni kutib olish uchun xizmat qilgan bo'lib, ular nafaqat hashamat balki, davlatning obro'-e'tiborini ham namoyon qilgan. Bu joylarda zardo'z pardalar, qimmatbaho gilamlar, billur qandillar va oltin suvi yuritilgan yog'och naqshlar ishlatilgan. Bog'lar va hovlilar esa saroyning estetik hamda ma'naviy nafasatini oshiruvchi muhim elementlardan biri bo'lib, ular hukmdorlarning hordiq chiqarish maskani bo'lishi bilan birga, tabiat va inson uyg'unligini ramziy ifodalagan. Favvoralar, manzarali daraxtlar va rang-barang gullar bilan bezatilgan bu bog'lar Sharq me'moriy an'alarining ajralmas qismi hisoblangan. Saroy ichida kutubxonalar, madaniy va ilmiy anjumanlar uchun zal ham mavjud bo'lib, ular ilm-fan, falsafa va san'atning rivojiga xizmat qilgan. Aynan shu joylarda shoirlar, olimlar va san'atkorlar jam bo'lib, madaniy muhitning shakllanishiga hissa qo'shgan. Shunday qilib, saroy – bu oddiy turar-joy binosi emas, balki davlat hokimiyati, san'at, ilm-fan va madaniyatning o'zaro uyg'unlashgan maskani bo'lib, u har bir devor naqshida, har bir koshin jilvasida hukmdorlik qudratini va davrning badiiy-estetik qarashlarini aks ettirgan.

O'rta asrlardan boshlab, Sharq va G'arb hukmdorlari orasida hashamdor saroylar qurish odati keng tus oldi. Bunday qarorgohlar shahar markazida, viloyatlarda va davlatning chegara hududlarida qurilib, ulardan xorijdan kelgan obro'li mehmonlar va elchilarni kutib olish, dam olish maqsadida foydalanilgan. XIX asr oxirida ham bu odat hali ham davom etganini Buxoroning mang'it hukmdorlari timsolida ko'rishimiz mumkin. Hukmdorlardan Amir Nasrullo, Amir Shohmurod, Amir Olimxon va uning vorisi Amir Abdulahadxon davrida qurilish ishlariga alohida e'tibor qaratilib, eng ulug'vor saroylar qad rostlagan bo'lsada, boshqa mang'itiy hukmdorlar ham o'z hukmdorlik davrida shahar obodonchiligiga o'z hissalarini qo'shishgan. Buxoro hukmdorlarining qadimdan davlatni idora qiluvchi boshqaruv markazi Ark bo'lgan. Xon va amirlarning qabul marosimlari, davlat ishlaridan xordiq chiqarishlari ularning shahar qal'asidan tashqaridagi saroylarida bo'lib o'tgan. Ushbu saroylar asosan yoz mavsumiga moslangan bo'lib, tropik o'simliklar, tovu va hatto fillar ham saqlanadigan bog'lar, yirik hovuz hamda bazmlar uchun keng maydondan iborat bo'lgan. XIX asrda Buxoro qal'a devoridan tashqarida amir Haydarning bog'i, amir Nasrullaxon davrida O'glon darvozasidan chiqishda "Chorbog' xossa", amir Muzaffarxon davrida Qarshi darvozasidan tashqarida "Shirbudun", yuqoridagi Mang'it hukmdorlari va so'nggi hukmdor amir Olimxon davrida "Sitorai Moxi xossa" saroylari faoliyat ko'rsatgan. Bu saroylardan tashqari yana hukmdorlar tomonidan bir qancha saroylar, dam olish uchun chorbog'lar yaratganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Karmanada bu davrda mavjud saroy va bog'lar ta'mirlanib, obod joylarga aylantirilishi bilan bir qatorda, yangi bog' va saroylar – Askarobod, Jarchorbog', Mirzochorbog', Bog'iolchin, Gulchorbog', Xayrobod kabi go'zal va ko'rkam joylar bunyod etildi. Muhammad Ali Baljuvoni o'z kitobida mang'it amirlari davrida Buxoro amirligida Karmanadagi Chorbog'i Mirzo va Chorbog'i Charmgariy hamda Chorbog'i Olchin poytaxt amirlarining dam oladigan joyi sifatida ma'lum bo'lganligini yozadi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, amirning Shahrisabz, Qarshi va Buxoro tumanlarida ham shunday dam olish uchun tez-tez borib turadigan maskanlari bo'lgan. Amir u uyerga ba'zan xalq bilan suhbatlar o'tqazish uchun ya'ni ularning arz-dodini tinglash uchun o'z a'yonlari bilan tashrif buyurgan.

Xulosa o'rnida aytganda, Buxoroda XVI asrdan boshlangan qurilish va obodonchilik an'anasi Mang'itlar hukmronligi davrida ham davom etdi. XIX asrda ham Mang'it amirlari saroylar qurdirish va ularni ta'mirlash ishlarini faol rivojlantirdilar. Bunga asosan ikkita sababni keltirish mumkin: birinchidan, har bir amir o'z saroyini davlatni boshqarishdagi asosiy markaz va nufuz manbai sifatida ko'rgan; ikkinchidan, sharq hukmdorlariga xos bo'lgan dabdabali va ulug'vor saroylar barpo etishga bo'lgan qiziquvchanlik ularning qadrdon maqsadlaridan biri edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfutdinov, F. (2025). Bukhara architecture: historical heritage and its significance. *Modern Science and Research*, 4(3), 485–492. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/74121>
2. Sayfutdinov, F. (2025). Buxoro me'morchiligi: tarixiy meros va uning ahamiyati. *Modern Science and Research*, 4(3), 572–579. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/72130>
3. Sayfutdinov, F. (2025). 1918-1920 yillar xalqaro munosabatlar tarixida Versal – Vashington konfrensiyalarining ahamiyati. *Modern Science and Research*, 4(2), 1066–1073. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/68491>
4. Ilniyazovich, S. F. (2023). Raqamli texnologiyalarning tarix fanini o'qitishdagi ahamiyati.
5. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). Etnografik tadqiqotlarda qoraqalpoq xalqining yoritilishi.
6. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *European journal of innovation in nonformal education*, 4(3), 149-155.
7. Sayfutdinov, F. (2024). Buxoro amirligining qurilish tarixi: madaniy va arxitektura taraqqiyoti merosi. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
8. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX asr 2-yarmi xxi asr boshlari zarafshon vohasida etnoslararo munosabatlar. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 3(9), 1–5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
9. Sayfutdinov, F. . (2024). Illumination of the spiritual life of the karakalpak people in research. *Journal of Universal Science Research*, 2(5), 441–452. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/34891>
10. Sayfutdinov, F. (2024). Mang'it amirlari davrida buxoro amirligi me'morchilik sohasi rivoji. *Modern Science and Research*, 3(10), 620–629. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/45335>
11. Ilniyazovich, S. F. (2024). Historiography of Various Expeditions and their Results in the Regions Inhabited by Karakalpaks in the First Half of the 20th Century. *European journal of innovation in nonformal education*, 4(9), 159-165.